

## NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK

Xongeldiyeva Sevvara Shuxrat qizi

O'zbek filologiyasi fakulteti,

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Umurqulov Bekpo'lat

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12600923>

**Annotatsiya.** Bu maqolada nutq madaniyatida jahon hamda sharq notiqlik san'atining o'ziga xos tutgan o'rni, uning o'ziga xos mezonlari, madaniy nutq hosil bo'lishida notiqning til birliklaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish borasidagi mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Nutq, notiqlik, nutq odobi, sharq hamda jahon nutq madaniyati, Tsitseronning notiqlik nutqi kompozitsiyasi, qadimgi Gretsiyada notiqlik san'ati va nutq odobi.

## SPEECH CULTURE AND SPEECH

**Abstract.** This article contains comments on the unique role of world and eastern oratory art in speech culture, its unique criteria, and the formation of practical skills to determine the possibilities of the speaker to use language units in the formation of cultural speech.

**Key words:** Speech, oratory, speech etiquette, eastern and world speech culture, composition of Cicero's oratory speech, oratory art and speech etiquette in ancient Greece.

## РЕЧЕВАЯ КУЛЬТУРА И РЕЧЬ

**Аннотация.** В данной статье раскрывается уникальная роль мирового и восточного ораторского искусства в культуре речи, его специфические критерии, формирование практических умений определять возможности говорящего использовать языковые единицы при формировании культурных речевых комментариев.

**Ключевые слова:** Речь, ораторское искусство, речевой этикет, восточная и мировая речевая культура, композиция ораторской речи Цицерона, ораторское искусство и речевой этикет в Древней Греции.

Nutq madaniyati har bir shaxsning umumiy madaniyatining bir qismi bo'lib hisoblanadi.

Nutq madaniyati insonning fikrlarini aniq, ravon, sodda, tushunarli va ifodali qilib tinglovchilarga yetkazishga yordam beradi. Bo'lajak pedagoglar uchun muomala madaniyatini, nutq madaniyatini egallash ayniqsa zarur bo'lib hisoblanadi. Nutq madaniyatining nozik qirralarini bilish, nutq sofligiga va to'g'ri talaffuzga erishish lozim. Pedagog o'z fikrlarini talabalarga aniq va Ravshan yetkazish natijasidagina yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erisha oladi. Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi". Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor.

Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir. XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan.

"Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

Ma'lumki, nutq madaniyati notiqlik bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat azal-azaldan o'z fikrlarni ifodalash, tinglovchiga yetkazishda ifodali va ta'sirchan so'z va jumalardan foydalanishga intilib keladi. Davrlar o'tishi bilan tildan foydalanish san'at darajasiga ko'tarildi va bu san'atning yorqin ko'rinishi bo'lgan notiqlik yuzaga keldi. Notiqlik mahorati predmeti-og'zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta'sirchan yetkazish malakasini egallash haqida tushuncha beradi. Notiqlik san'ati murakkab san'at bo'lib, uni egallash kishidan qunt, chidam, malaka va tajriba talab etadi[5,5]. Shaxslarning o'zaro muloqot jarayonida tilning eng muhim ijtimoiy vazifalari o'z aksini topadi. So'zlovchi yoki yozuvchi aloqa jarayonida tildagi mavjud lisoniy vositalardan foydalanishda aniq bir kommunikativ maqsadni, ya'ni tinglovchiga ma'lum bir voqea-hodisa to'g'risida ma'lumot berish yoki olish, munosabat bildirish yoki fikr ifodalash orqali tinglovchi yoki o'quvchi ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etishni ko'zda tutadi.

Aynan mana shu maqsad nutqiy aloqa mundarijasini belgilab beradi. Shu o'rinda nutq madaniyati va odobi nima, degan savol tug'ilishi tabiiy. Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz.

Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jumalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyati, nutq odobini asosan 2 xil ma'noda ham qo'llash mumkin, bunda:

1) og'zaki va yozma adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati;

2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish (tartibga solish) muammolarini o'rganuvchi bo'limi.

G'arb tilshunosligida umumiy ma'noda "til madaniyati" termini ham qo'llanadi. 1-ma'nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o'zlashtirishdagi ikki bosqichni qamrab oladi: a) nutqning to'g'riligi va boshqa nutqiy mahoratga egalik. Nutqning to'g'riligi muayyan tilda so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir.

Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng maqbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (Mas., aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan birining adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi. Fikr ifodalashda nutqiy vaziyat uchun kerakli bo'lgan til birliklarini to'g'ri tanlay olgan va mahorat bilan qo'llab, uni san'at darajasiga ko'tara olgan kishilar azaldan notiq hisoblanadi. Shuning uchun falsafiy jihatdan kishining nutqiy mahoratini ko'rsatadigan notiqlik va nutq madaniyati biri ikkinchisini taqozo etadigan, to'ldiradigan hamda o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. So'zlovchi yoki yozuvchining o'z fikrlarni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazish jarayonida nutqiy vaziyat uchun mos keluvchi til birliklarini tanlay olishi hamda ularning ifodalanayotgan fikrlar g'oyaviy mazmuniga sindirib yuborishi nutq madaniyatining asosini tashkil qiladi. Shuning uchun kishining og'zaki yoki yozma savodxonlik darajasi, nutq madaniyatini qay darajada egallaganini kommunikatsiya jarayonida xususan, notiqlikda o'z aksini topadi. Tarixdan ma'lumki, notiqlik insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida ham so'z san'ati sifatida birday e'zozlangan va hozirjavob, chechan, gapga usta kishilar alohida hurmatga sazovor bo'lganlar.

Shu o'rinda jahon madaniyati tarixida notiqlik san'atining tutgan o'rni haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Notiqlikka eng qadimgi san'atning nutq orqali amalga oshadigan turlaridan biri sifatida dastlab Misr, Assuriya, Vavilon kabi davlatlarda ta'mal toshi qo'yilgan bo'lsa-da, u asosan Yunonistonda taraqqiy qildi. Qadimda notiqlik san'atining ilk ko'rinishlari dastlab Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'ldi. Keyinchalik esa qadimgi Yunoniston va Rimda notiqlik, nutq madaniyati birmunchataraqqiy etib, mamlakatning ichki va tashqi siyosatida muhim o'rintuvchi nazariya sifatida takomillashdi. Qadimgi davrda Misr, Vavilon va Hindiston kabi davlatlarda tildan foydalanishga alohida e'tibor berganlar.

Ular tilga insonning kamolot darajasini ko'rsatuvchi belgi, qolaversa, tinglovchilarni ishontirish vositasi sifatida munosabatda bo'lganlar. Keyinchalik esa arablar o'zlari kiyadigan kiyimlarni ham fikrni ifodalash usuli – uslubiga mos tarzda tushunadigan bo'lganligi tarixdan ma'lum.

Notiqlik san'atining inson ma'naviy kamolotini belgilovchi tur sifatidapaydo bo'lishi va shakllanishi to'g'ridan- to'g'ri qadimgi Yunoniston bilan bog'liq.

Qadimgi Yunonistonda kishilik jamiyatida ilk marotaba notiqlik san'atining ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutishi asoslanib, uning nazariy masalalari, fikr ifodalashning o'ziga xos kommunikativ strukturasi, talab va mezonlari ishlab chiqildi. Manbalardan ma'lumki, qadimgi Yunonistonda notiqlik san'ati rivoji bevosita o'sha davrda hukm surgan quldorlik tuzumi, quldorlik demokratiyasi bilan bog'liqdir.

Bu davrda qadimgi Afina boshqa quldorlik tuzumiga asoslangan davlatlar o'rtasidagi sinfiy ziddiyatning kuchayishi o'z ijtimoiy, sinfiy manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy notiqning yetishib chiqishiga zamin yaratdi. Afina tarixida ma'lum o'rin tutuvchi tarixiy shaxslarning mamlakat hayotidagi siyosiy mavqei, davlat ijtimoiy sistemasida tutgan o'rni, davlat yalpi daromadidan oladigan ulushi bevosita ularning notiqlik mahoratiga, o'z sinfiy manfaatlarini davlat boshharuvida siyosiy oppozitsiyada turuvchi boshqa ijtimoiy guruqlar oldida qay darajada himoya

qilishiga bog‘liq edi. Ijtimoiy muhit, mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat notiqlikning bir qator turlari rivoji uchun imkoniyat yaratdi. Bu davrda mamlakat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar siyosiy notiqlik bilan bir qatorda Yunon sud rasmiyatchiligi asosida yuzaga kelgan sud notiqligining ham shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Yunonistonning savdo davlati ekanligi, juda katta hududda joylashgan qo‘shni davlatlar o‘rtasida savdo bilan bog‘liq masalalar yechimini topishida gapga chechan huquqshunoslarga bo‘lgan ehtiyoj siyosiy notiqlik qatori hayotning maishiy tomonlari bilan bog‘liq bo‘lgan notiqlikning bir qator ko‘rinishlarini vujudga keltirdi. Umuman olganda, Gretsiyada kishining gapga chechanligi, davralarda o‘z fikrini silliq va ifodali tarzda tinglovchilarga yetkaza olish mahorati yuqori baholanar va qadrlanar edi.

Shu bois yunonlar turli siyosiy davrlarda notiqalar tomonidan ifodalangan faqat chiroyli nutqningina e’tirof etish bilan cheklanmay, uning mazmundorligiga ham alohida e’tibor qaratar edilar. Shu tufayli ular kishilarga notiqlik san’atini o‘qitishni, o‘rgatishni birdan-bir vazifa deb bilardilar. Gretsiyada maxsus maktablar tashkil etilib ularda tajribali notiqalar yoshlarga nutq so‘zlash malakasini egallash bo‘yicha dars berardilar. Gretsiyada notiqlik san’ati nazariyasi – ritorika yaratildi va bir qator taniqli notiqalar paydo bo‘ldiki, ularning tajribasi hozirga qadar ham o‘rganilib kelinmoqda.

Qadimgi Yunonistonda kishining notiqlik bilimlariga ega bo‘lishi siyosiy ahamiyatiga ega bo‘lgan. Mamlakatda quldorlik tuzumining hukm surishi o‘z navbatida siyosiy notiqlikning rivojlanishi uchun zamin yaratgan. Notiqlik sirlarini bilish birgina davlat rahbari, xalq yetakchisidan tashqari bo‘lgan kishilarga ham shart bo‘lgan. Bu o‘sha davrda sud notiqligining katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Chunki har birkishi sud oldida o‘zini chiroyli nutqi bilan himoya qilishi lozim bo‘lgan. Bundan tashqari, yuqori doiralarga xizmat qiluvchi notiqalar ham bo‘lgan. Ular asosan, tantanali yig‘ilishlarda, turli rasmiy kechalarda davlatning yuqori tabaqa vakllarini madh etish bilan shug‘ullanganlar. Natijada esa maqtoov notiqligi ham vujudga kelgan.

Davr talabi va hayotiy ehtiyoj bu davrda bir qator jahonga taniqli bo‘lgan notiqalarni yetishtirib chiqargan. Bu haqidagi dastlabki ma'lumotlar homerning “Illiada” va “Odiseya” asarlari orqali yetib kelgan. Bu asarlarni o‘rgangan Rim notig‘i Kvintilianta'sirchan, sodda va go‘zal fikr ifodalash imkoniyatlari kengligiga shohidbo‘ldi. U bu asarlarda fikr ifodalashda og‘zaki nutq san’atining roli kattaekanligini va nutqning mukammal bo‘lishini ta’minlovchi soddalik, aniqlik, ifodalilik kabi xususiyatlar notiq nutqining bezagi ekanligini e’tirofetadi. Yunoniston tarixidagi buyuk siymolardan biri Demosfendir.

Sudda o‘zini himoya qiluvchi sud notig‘i darajasidan katta siyosiy notiq darajasiga ko‘tarilgan Demosfen o‘z ustida tinimsiz mashq olib borgan. Past ovozi va titrab turadigan kiftini tuzatish uchun u og‘ziga tosh solish, kiftiga qilich tirab turish kabi mashqlar bilan o‘z jismoniy kamchiliklarini bartaraf etgan. Uning nutqi siyosiy harakterga ega bo‘lib, vaziyatga mos holda o‘zgara borgan. Uning nutqlari auditoriyaga mos holda sodda, tushunarli, oddiy, tantanavor, jiddiy, aniq bo‘lgan. U xalq orasida chuqur hurmat -e’tibor qozongan. Demosfendan keyingi davr notiqligi Aristotel nomi bilan bog‘liq. U o‘zining notiqlik san’atiga bag‘ishlangan “Ritorika” nomli asarida bu san’atning nozik jihatlari haqida fikr yuritadi. U avvalombor, notiqning o‘z nutqini to‘g‘ri shakllantira bilishi, aniqligiga e’tibor beradi. Qadimgi Rimda yetishib chiqqan mashhur notiqalardan biri Sitserondir. Uning turli mazmundagi 58 ta nutqi, notiqlik san’ati, siyosat vafalsafaga bag‘ishlangan 19 ta asari va 800 dan ziyod maktublari hozirgaqadar saqlanib qolgan.

Tsitseronning notqlik san'ati borasidagi faoliyatini o'rgangan tilshunos olimlar B. O'rinboev va A.Soliev uning quyidagixususiyatlariga alohida e'tibor berganligini ta'kidlaydilar:

1. Notiqning o'ziga ishonchi mustaqkam bo'lishi kerak. Buninguchun esa notiq o'z nutqida olg'a suriladigan fikrga to'la ishonch hosilqilish lozim.

2. Nutq to'liq, isbotli dalillarga ega bo'lishi kerak.

3. Materialni to'plash nutqqa tayyorgarlikning asosidir.

4. Materialni to'g'ri joylashtirish – ekspozitsiyaga alohida e'tiborberish lozim.

Joylashtirish shunday bo'lsinki, u materialni butunlayo'zlashtirib olishga yengillik yaratsin. Buning uchun esa nutqni aniqqismlarga bo'lish lozim.

5. Har qanday sohada ham nutqning muvaffaqiyatini bilish hal etadi.

Agar notiq o'z nutqi qaratilgan sohani yaxshi bilmasa, u qanchalik san'atkor bo'lmasin, o'z tinglovchisini jalb etolmaydi. Sitseron nutqning tuzilishiga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, har bir nutq talabga javob berarli darajada qurilgandagina yaxshi natija beradi. Sitseron tomonidan ishlab chiqilgan notqlik nutqi kompozitsiyasi quyidagicha bo'lgan:

1. Kirish.

2. Ishning mohiyatini bayon qilish.

3. Planning keyingi qismlarini ifodalash.

4. Dalillar (nutqning eng muhim qismi).

5. Asosiy mazmuni ta'kidlash.

6. Xulosa (yakun yasash).

Jahon ritorikasi tarixida tan olingan buyuk notiq Sitseronning harbiy sarkardalik va notqlikni insonni oliy darajaga ko'taruvchi san'at deb baholashi ham notqlikning o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotidanechog'lik muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi. Yunoniston tarixida Perikl, Demosfen, Sitseron, Lisiy kabi notiqlar siyosiy va sud notqliginingrivojlanishiga, ilmiy-nazariy tamoyillarining ishlab chiqilishiga munosib hissa qo'shdilar. O'sha davrning mashhur notiqalaridan bo'lgan Arastuo'zining "Ritorika" asarida notqlik san'ati nazariyasi tamoyillarini ishlabchiqdi. U bu asarda notqlikda amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillarni belgilab berdi, notiq uchun lozim hisoblangan qobiliyat va shaxsiyxususiyatlarni ko'rsatdi hamda fikr ifodalash jarayonida qo'llaniladigannutq texnikasi va usullarini belgilab berdi. Bu borada erishilgan yutuqlarnotqlik san'atining nafaqat Yunonistonda balki keyinchalik butun Yevropa mamlakatlarida taraqqiy etishi va nazariy asoslarining ishlab chiqilishigazamin yaratdi. Demak, insonga nutq eng oliy tuhfa sifatida berilgan. Undanfoydalanishda esa u juda ehtiyotkor bo'lmoqligi, komil inson oldigaqo'yiladigan talablardan kelib chiqib foydalanmog'i kerak.

Yurtimizda yetishib chiqqan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abdulloh al Xorazmiy, Mahmud Koshhary, Yusuf XosHojib, Zamaxshariy, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar ijodida ham nutqmadaniyatiga oid qimmatli fikrlar mavjud. Notqlik Markaziy Osiyoxalqlari madaniyati va ma'naviyati taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqbo'lib, mazkur tarixning ajralmas qismi hisoblanadi.

Nutq madaniyati, inson nutqini kamol toptirish masalasi nafaqat tilshunoslik ilmining balki adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, mantiq, axloqshunoslik, nafosatshunoslik fanlarining ham tadqiq mundarijasida turuvchi asosiy mavzulardan hisoblanadi. Shu bois unga ham ruhiy, hamestetik hodisa sifatida qaraladi.

#### REFERENCES

1. Jo'rayev T.T, Halimov S.G`. Nutq madaniyati. – Samarqand, 2021.
2. [http://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq\\_madaniyati](http://uz.wikipedia.org/wiki/Nutq_madaniyati)
3. Jumaniyozov R., Salimov S. G'oyaviy tarbiyada notiqlik san'ati.- Toshkent, 2002.
4. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. Toshkent, 2009. -188 b.
5. Suyunov O.J., Toshmatov Sh.O'. “Notiqlik san’ati va nutq madaniyati”, Samarqand: 2010-y.